

Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



Podshoh Dovud
(1-qism)



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen

...tomonidan ishlab chiqarilgan:
Bible for Children www.M1914.org

©2013 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Podshoh Shoul Dovudni o'ldirmoqchi
bo'lib yurgandi.



Shuning uchun yosh Dovud qochib yurardi.



U o'ziga ergashgan 400ta odam bilan katta g'orga yashiringan edi.



Ba'zan Shoulning lashkarlari Dovudni
qaerdaligini topardi, ammo Dovud
qochishga ulgurar
edi.



Shoulning Doeg ismli xizmatkori bor edi. U oliyruhoniylar Dovudga yordam berayotganini Shoulga aytdi. Shoul oliyruhoniylarni o'ldirishni buyurdi.




Buni bajarishga faqat Doeg rozi bo'ldi. U bir kunda 85ta oliyruhoniya va ularning oilasini qilichdan o'tkazdi.



Bir kuni
Shoul
Dovudni
izlab yurgan
edi. U
Dovud
yashiringan
g'orga kirib
qoldi.




U yerda Shoul
yolg'iz dam
olayotgan edi.




G'orning ichida
Dovud Shoulni
osonlikcha
o'ldirishi
mumkin
edi,



ammo u bunday qilmadi.



Buning o'rniga
u Shoulning
kiyimidan
bir qismini
kesib oldi.



Shoul ketgandan
keyin Dovud
uni chaqirib,
dedi:




"Men kiyimingni
bir qismini kesib
oldim, seni
o'ldirishim
ham




mumkin edi, ammo bunday
qilmadim. Chunki senga
dushman emasman."



Shunda Shoul undan kechirim
so'radi. Ammo bir oz vaqt o'tib,
Shoul yana g'azab otiga mindi.
U 3000ta lashkar to'plab, yana
Dovudni o'ldirish payiga tushdi.



Bir kuni kechasi podshohning barcha
lashkarlari uxlab yotganda, Dovud va
Abushay Shoulni chodiriga kirishdi.





Abushay Dovudga:
"Bugun Xudo
dushmanlaringni
qo'lingga tutqazdi.
Iltimos, unga
nayza
sanchishimga
ijozat ber," -
dedi.






Dovud rozi bo'lmadi.
U Shoulning nayzasi
va ko'zasini olib, chiqib
ketdi. So'ng qirning
boshqa tarafidan
turib, Shoulni baland
ovoz bilan chaqirdi.





Shoul Dovudning uni o'ldirishga yana bir imkoniyati bo'lib, ammo buni qilmaganini ko'rdi. Shoul yana kechirim so'radi. Lekin Dovud endi unga ishonmas edi.



O'sha vaqtga kelib,
Shomuil vafot etdi. U
avval Shoulni, so'ng
Dovudni Isroil podshohi
qilib tayinlashga Xudodan
amr olgan payg'ambar edi.
Filistlar Isroilga hujum
qilganda, Shoul Xudoga
to'g'ri kelmaydigan bir
narsa qilgandi.



U Shomuilni chaqirib kelish
uchun bir ayolni yubordi. So'ng
shunday xabar eshitdi:



"... Xudo sendan yuz o'girdi.
U sendan podshohlikni olib,
Dovudga berdi. Ertaga sen
va o'g'illaring men bilan
bo'lasizlar. Shuningdek
Xudo Isroil lashkarini
ham Filistlar qo'lga
topshiradi."



Buni eshitgan Shoul
qo'rquvdan dahshatga
tushdi.



Filistlar Isroilga qarshi
hujum qilishdi.
Isroilliklar
hammasi
qochib
ketdi.



Filistlar Shoulning
o'gillarini o'ldirishdi.
Ular orasida
Soulning o'g'li
Iyonafan
ham bor
edi.



U Dovudning
yaqin do'sti
bo'lgandi.



Shoulga bir necha
bor nayza otishdi.
Shunda u o'zining
lashkarboshchisiga:
"Dushman kelib,
meni o'ldirgandan
ko'ra, sen meni
qiliching bilan
o'ldir," - dedi.



Ammo lashkarboshi
bunday qilishga
qo'rqdi. So'ng
Shoul o'zi qilichni
turgizib, uning
ustiga o'zini
tashladi.





Filistlar Shoul va uning
o'g'illarini tanasini
Isroil devoriga
bog'lab qoyishdi.
Ba'zi jasur
Isroilliklar
ularning tanasini
echib, ko'mishga
olib ketishdi.






Bu xabarlarni
eshitgan Dovud,
chuqur qayg'uga
botdi. U kun
botguncha yig'ladi.



Shoul Dovudni
o'ldirmoqchi bo'lgan bo'lsa
ham, Dovud uni Xudoning
moylangan podshohi
sifatida
hurmat
qilardi.



Endi esa Xudo
Dovudni Shoulning
o'rniga podshoh
etib tayinladi.



Podshoh Dovud (1-qism)

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

1 Podshohliklar 24-31,
2 Podshohliklar 1-2

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,
men Senga itoat qilishim uchun va Sening
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

